ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI VA PEDAGOGIK METODLARNING TA'LIM TIZIMIDAGI VA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI FAOLIYATIDAGI SAMARADORLIGINING NAZARIY ASOSLARI

To'rayeva Shahnoza O'rol qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Pedagogika mutaxassisligi 1- kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17067353

Annotatsiya. *Ta'lim trendlari — bu zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, innovatsiyalar va istiqbolli yo'nalishlar bo'lib, ular global talablar, texnologik taraqqiyot, mehnat bozoridagi o'zgarishlar va jamiyat ehtiyojlari asosida shakllanadi. Bu trendlar pedagogik texnologiyalar, o'qitish uslublari, mazmun va metodika, o'qituvchi va o'quvchi rolining qayta ko'rib chiqilishi bilan bog'liq bo'ladi.*
Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, fan, ta'lim tizimi, mutaxassis, talaba, bilim va malaka, madaniyat,daraja,digital education,soft skill.*

Abstract. *Learning trends - changes in the modern education system, innovations and promising areas, which are formed on the basis of global requirements, technological development, changes in the labor market and the needs of the labor market and the needs of the labor market. These trends will be associated with pedagogical technologies, teaching methods, content and methodology, and review of teacher and student role.*
Key words: *higher education, science, education system, specialist, student, knowledge and skills.*

Аннотация. *Тенденции обучения - изменения в современной системе образования, инновациях и многообещающих областях, которые формируются на основе глобального требований, технологического развития, изменений на рынке труда и потребностей рынка труда и потребностей рынка труда. Эти тенденции будут связаны с педагогическими технологиями, методами преподавания, содержанием и методологией, а также с обзором роли учителей и учащихся.*
Ключевые слова: *высшее образование, наука, система образования, специалист, студент, знания и навыки, культура, уровень, цифровой паталион, мягкий Skez.evel, Digital patalion, Soft skez.*

Kirish. Ta'lim trendlari — bu zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, innovatsiyalar va istiqbolli yo'nalishlar bo'lib, ular global talablar, texnologik taraqqiyot, mehnat

bozoridagi o‘zgarishlar va jamiyat ehtiyojlari asosida shakllanadi. Bu trendlar pedagogik texnologiyalar, o‘qitish uslublari, mazmun va metodika, o‘qituvchi va o‘quvchi rolining qayta ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. XXI asrning ikkinchi choragida globallashuv, raqamli transformatsiya, mehnat bozorining yangilanayotgan talablari, shuningdek, sun’iy intellekt va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi maqsadlar va vazifalarni yuklamoqda. Bu holat o‘z navbatida ta’limda yangicha yondashuvlar, metodlar va tamoyillar — ya’ni ta’lim trendlarini yuzaga keltirdi. Ta’lim trendlari tushunchasining mazmuni Pedagogik adabiyotlarda “trend” tushunchasi ko‘proq zamonaviy taraqqiyot yo‘nalishlari, ommaviylashayotgan metodlar va yangi shakllarning umumiy tendensiyasini ifodalaydi.

Ta’lim trendlari — bu vaqtinchalik moda emas, balki zamon talablari asosida shakllanayotgan sifatli, zamonaviy va insonparvar ta’lim tizimini yaratishga yo‘naltirilgan strategik yo‘nalishlardir. Ular orqali o‘quvchi ta’lim jarayonining markaziga qo‘yiladi, mustaqil, ijodiy va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanish.

Jumladan, rus pedagogi A.V. Khutorskoy ta’kidlaganidek: “**Trend — bu ta’lim tizimida vujudga kelayotgan yangi hodisalarning istiqbolli yo‘nalishidir. U pedagogik amaliyotda kuchayib borayotgan ehtiyojlarga ilmiy va texnologik javobdir.”** Bu yondashuvga ko‘ra, ta’lim trendlari nafaqat metodik yangilik, balki butun ta’lim tizimi transformatsiyasini ifodalaydi.

Zamonaviy ta’lim trendlari quyidagi jihatlarda o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

O‘quvchilar motivatsiyasining oshishi;

Ta’limga bo‘lgan shaxsiy mas’uliyatning kuchayishi;

Mustaqil izlanish, refleksiya, tahliliy fikrlashning shakllanishi;

Ta’lim sifatining oshishi (individual va guruhiy natijalar orqali);

O‘qituvchining roli o‘zgarishi – u axborot manbai emas, balki facilitator, mentor, koordinator sifatida harakat qiladi.

Pedagogik metodlar – bu o‘quvchilarga bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, ularni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan o‘qituvchining faoliyat usullaridir. An’anaviy metodlar asosan bilimlarni bayon qilish va mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogik metodlar talabaning faolligini oshirish, uning shaxsiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil o‘rganish faoliyatini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan.

Zamonaviy metodlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Shaxsga yo‘naltirilganlik;

Faoliyatga asoslangan yondashuv;

O‘quv faoliyati jarayonida bilimlar puxta egallanadi. O‘quvchilar bilimni "eslab qolish" emas, balki "amaliyotda qo‘llash" orqali o‘zlashtiradi. Shuning uchun amaliy topshiriqlar, treninglar, rolli o‘yinlar, loyihalar kabi metodlar faoliyatga asoslangan.

Konstruktivizm (bilimlar o‘z tajribasi asosida quriladi);

Bu nazariyaga ko‘ra, bilim inson tomonidan faol tarzda quriladi. O‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni o‘z tajribasi asosida mustaqil ravishda quruvchi sub’ektdir. Zamonaviy metodlar bu yondashuv asosida tuziladi – loyiha usuli, muammoli ta’lim, reflektiv yondashuvlar aynan shunga asoslangan.

O‘zaro hamkorlikka asoslangan ta’lim;

Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilarning birgalikda ishlashi nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Zamonaviy metodlar – klasterlar, debat, jamoaviy loyiha, aqliy hujum va boshqalar shular jumlasidandir.

Refleksiya va tahlil qilishga e’tibor.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu o‘quv jarayonini yangicha tashkil qilish, yuqori samaradorlikka erishish, o‘quvchining ijodiy va intellektual rivojini ta’minlashga xizmat qiluvchi metod va vositalardir. Ular o‘quv jarayoniga axborot-kom/munikatsiya texnologiyalari (AKT), interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, gamifikatsiya, media ta’lim, STEAM texnologiyalari va boshqa yondashuvlarni joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – multimedia, onlayn platformalar, raqamli resurslar;

Loyiha asosida ta’lim – real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar;

Gamifikatsiya (o‘yinga asoslangan ta’lim) – motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi;

Konstruktiv yondashuv – bilimlarni mustaqil qurish va tahlil qilish;

Flipped classroom (ag‘darilgan sinf) – darsdan oldin o‘rganish, darsda muhokama qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy metod va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari. Zamonaviy metodlar quyidagi ilmiy yondashuvlarga tayanadi:

- Konstruktivizm nazariyasi (J. Piaget, L. Vigotskiy): bilimlar shaxsiy tajriba asosida quriladi;
- Faoliyat nazariyasi: o‘quvchi bilimni faol harakat jarayonida egallaydi;
- Kooperativ ta’lim: guruhda ishlash orqali o‘zaro bilim almashinuvi;
- Metakognitiv yondashuv: o‘quvchining o‘z fikr jarayonlarini tahlil qilishi va boshqarishi.

Bu yondashuvlar asosida yaratilgan metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoni hal qilish kompetensiyasini shakllantirish, o‘z-o‘zini baholash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik metodlar: olimlar fikrlarida:

1) J. Dyui (John Dewey) – Amerika pedagogi, konstruktivizm asoschisi:

“Ta’lim – bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zi. O‘quvchilar bilimni tayyor shaklda emas, o‘z faoliyati orqali o‘zlashtirishi kerak.”

Dyui ta’limni statik, tayyor bilimlarni berish jarayoni sifatida emas, balki faoliyat orqali o‘rganiladigan, doimiy rivojlanishdagi hayotiy tajriba deb tushuntiradi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar faqat bilimni tinglab emas, balki real muammolarni hal qilish, ijtimoiy muloqot qilish, mustaqil fikrlash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashi kerak. Jon Dyui ta’limga innovatsion, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan yondashuvni ilgari surgan. Uning g‘oyalari zamonaviy ta’lim metodikasi va pedagogik texnologiyalarni shakllantirishda asosiy nazariy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ta’limda interfaol, ijodiy va amaliy yondashuvlar keng qo‘llanilayotganining sababi – aynan Dyui boshlab bergan tamoyillarning davomidir.

2) L.S. Vygotskiy – rus psixologi, sotsiokonstruktivizm tarafdori:

“**Inson bilimga avvalo ijtimoiy muloqot orqali ega bo‘ladi. Bilimlar birinchi navbatda ijtimoiy kontekstda shakllanadi, so‘ngra shaxsiylashtiriladi.”**[1]

(Vygotskiy, 1978. "Mind in Society")

Vygotskiyning fikrlari zamonaviy pedagogikaning asosiy g‘oyalaridan biri hisoblanadi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi asosida o‘quvchining rivojlanish salohiyatiga mos ta’lim metodlarini qo‘llash muhim deb qaraladi. Bugungi ta’limda keng qo‘llanilayotgan shaxsga

[1] Vygotskiy,1978.’’Mind in society’’

yo‘naltirilgan yondashuv, kooperativ o‘qitish, va interfaol metodlar Vygotskiy g‘oyalarining mantiqiy davomidir. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi bugungi ta’limda qo‘llanilayotgan hamkorlikda o‘qitish, jamoaviy o‘rganish kabi metodlarning asosidir.

3) J. Bruner (Jerome Bruner) – amerikalik psixolog va pedagog:

“O‘quvchilar bilimga faqat uni o‘zlari faol izlaganlaridagina ega bo‘ladilar. O‘qituvchining vazifasi – sharoit yaratishdir, bilim berish emas.”[2]

. Asosiy g‘oya: Faol o‘rganish (active learning) .Bu fikr J. Brunerning konstruktivistik yondashuvi asosida ilgari surilgan bo‘lib, unga ko‘ra: O‘quvchilar tayyor bilimni passiv ravishda qabul qilmaydi, balki faol izlanish, kuzatish, tahlil va muloqot orqali bilimni o‘zlari quradilar. Shu sababli, o‘qituvchi tayyor bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otuvchi va faoliyatni tashkil qiluvchi sharoit yaratuvchi bo‘lishi kerak..

J. Bruner fikriga ko‘ra, o‘qituvchi: O‘quvchilar uchun muammoli vaziyatlar yaratadi;

- O‘rganishni yo‘naltiradi, lekin to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilimni “bermaydi”;
- Savollar orqali fikrlashga undaydi;
- O‘quvchilarning qiziqishlari va tajribasiga tayangan holda o‘quv jarayonini tashkil etadi.

Bu yondashuv bugungi interfaol ta’lim, muammoli o‘qitish, loyiha asosida o‘qitish kabi metodlarning nazariy asosidir.J.Bruner fikriga mos bugungi kundagi metodlar: Muammoli o‘qitish, kashfiy o‘rganish trening, loyihaviy metod, gamifikatsiya shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, refleksiya Masalan, kashfiy o‘rganish (discovery learning) usulida o‘quvchilar o‘zlari tajriba asosida yangi bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu Brunerning “bilim – o‘rganuvchi tomonidan quriladi” degan yondashuviga to‘la mos keladi. Brunerning bu fikri zamonaviy ta’limning konstruktivistik, shaxsga yo‘naltirilgan va faol o‘quvchini yetakchi qiluvchi yondashuvlari uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kundagi ko‘plab metodlar (loyiha, muammoli, rolli o‘yin, debat, klaster, insert, kashfiy o‘rganish) – aynan o‘quvchini izlanishga undash, mustaqil bilim olishga yo‘naltirish maqsadida ishlab chiqilgan. Uning spiral o‘qitish modeli zamonaviy metodlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

4) R. Slavin (Robert Slavin) – kooperativ ta’lim tarafdori:

“**Guruhda ishlash nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi**.”[3]

Slavinning bu fikri zamonaviy interfaol metodlarning samaradorligini isbotlovchi asoslardan biridir.

5) A.V. Khutorskoy – rus metodisti, kompetensiyaviy yondashuv tarafdori:

“Ta’limning maqsadi – bilimni yetkazish emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bu esa faqat faol, interfaol metodlar orqali amalga oshadi.”[4]

6) I.A. Zimnyaya – rus psixologi:

“Zamonaviy pedagogik jarayon o‘quvchining ongli, maqsadga yo‘naltirilgan va reflektiv faoliyatiga asoslanmog‘i zarur. Bu esa metodlarni tanlashda muhim mezondir.”[5]

Uning fikricha, o‘quvchi bilimni tajribasi orqali quradi. Bu, zamonaviy konstruktivistik metodlarning nazariy asosini tashkil etadi

7) Sh. Amonov (O‘zbekiston) – pedagogika fanlari doktori:

[2] (Bruner, 1960. "The Process of Education")

[3] Slavin, 1995. "Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice")

[4] Khutorskoy, 2003. "Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno orientirovannoy obrazovatel'noy modeli")

[5] (Zimnyaya, 2004. "Pedagogicheskaya psikhologiya")

“O‘quvchi faolligi va mustaqil fikrlashi zamonaviy metodlar yordamidagina ro‘yobga chiqadi. Innovatsion metodlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlaydi.”[6]

Muhokama va natijalar. Zamonaviy ta’limda quyidagi asosiy trendlar ajralib turadi:

Raqamli ta’lim .XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ta’limning raqamli muhitga o‘tishi, o‘quv jarayonining raqamli vositalar bilan boyitilishi natijasida raqamli ta’lim tushunchasi paydo bo‘ldi . Raqamli ta’lim — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT), raqamli platformalar, onlayn resurslar, sun’iy intellekt, mobil ilovalar va interaktiv vositalardan foydalangan holda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidir. Pedagog olim S. V. Volkov raqamli ta’limni **“ta’lim oluvchining raqamli texnologiyalar yordamida mustaqil va masofaviy tarzda bilim olishini ta’minlaydigan moslashuvchan tizim**” deb ta’riflaydi . Raqamli ta’limning asosiy xususiyatlari:

-**Moslashuvchanlik**. Istalgan joyda va vaqtda ta’lim olish imkoniyati

-**Individuallashtirish**. O‘quvchining ehtiyoj va qobiliyatlariga moslashtirish (learning analytics, AI)

-**Interaktivlik.** Video darslar, virtual laboratoriyalar, testlar va simulyatsiyalar orqali faol ishtirok

-**O‘z-o‘zini baholash** .Tezkor testlar, reyting tizimi, progress monitoring

-**Ko‘p manbali o‘rganish** .Onlayn kutubxonalar, platformalar, ochiq ma’lumotlar bazalari (Coursera, Khan Academy, YouTube Edu, Google Scholar)

Raqamli ta’lim jarayonida quyidagi texnologik yechimlardan keng foydalanilmoqda:Learning Management Systems (LMS): Moodle, Google Classroom, Edmodo, Canvas;Virtual o‘quv muhitlar: Zoom, Microsoft Teams, Webex; Mobil ilovalar: Duolingo, Photomath, Quizlet, Kahoot, Sun’iy intellekt asosidagi yordamchilar: ChatGPT, Khanmigo, Grammarly;Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR): Labster, Google Expeditions; Raqamli baholash vositalari: Google Forms, Plickers, Socrati

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim .Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish: differensial yondashuv, moslashtirilgan topshiriqlar, temp va uslubni tanlash imkoniyati, bu o‘quvchilarni umumlashtirishdan voz kechish, har birining shaxsiy rivojlanish traektoriyasini yaratish, ularning faoliyatini rag‘batlantirish, psixologik jihatdan qulay va ochiq muhit yaratishdir. U o‘z tabiatiga ko‘ra, insonparvar, demokratik va ijodiy ta’lim tizimining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

K. Rojers. ‘’Ta’lim shaxsning o‘zini amalga oshirishiga xizmat qilishi kerak; o‘qituvchi — yo‘naltiruvchi’’

J. Dyui. ‘’Tajriba asosidagi ta’lim – o‘quvchi o‘z bilimini faol harakat orqali yaratadi’’

J. Piaget.’’ Shaxs intellektual bosqichma-bosqich rivojlanadi; ta’lim moslashgan bo‘lishi kerak’’

I. Zimnyaya. ‘’Shaxsiylashtirish orqali ta’lim motivatsiyasi va samaradorligini oshirish mumkin’’

Faol o‘quvchi konsepsiyasi :O‘quvchi bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi. (Bruner, Vygotskiy g‘oyalari asosida).

Faol ta’lim metodlari: Muammoli o‘qitish,Loyiha asosida o‘qitish ,Kichik guruhlarda ishlash

[6] (Amonov Sh., 2019. "Pedagogik texnologiyalar asoslari")

Faol o‘quvchi konsepsiyasi — bu nafaqat ta’limga zamonaviy yondashuv, balki inson kapitalini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy strategiyadir. Ta’lim jarayonida o‘quvchining passiv iste’molchi emas, balki faol ishtirokchi, izlanuvchi va o‘zgaruvchi shaxs sifatidagi mavqei oshirilmas ekan, samarali natijaga erishib bo‘lmaydi.

Soft skills o‘rgatish. Tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik, moslashuvchanlik, kreativlik kabi hayotiy ko‘nikmalarga e’tibor kuchaymoqda. Bugungi kunda ta’limda “Soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar) tushunchasi global ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ko‘nikmalar texnik yoki akademik bilimlardan (hard skills) farqli ravishda, insonning shaxslararo muloqoti, moslashuvchanligi, jamoaviy ishlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va boshqa hayotiy zarur ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Soft skills – bu o‘quvchining jamiyatda samarali faoliyat yuritishi, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashishi va doimiy o‘zgarayotgan hayotga tayyor bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalar majmuasidir.

Lifelong learning Umr bo‘yi o‘qish, doimiy o‘zini rivojlantirish — formal, informal va noformal ta’lim shakllarining uyg‘unlashuvi. “Lifelong learning” (hayot davomida o‘qish, doimiy o‘rganish) — bu inson hayotining har bir bosqichida uzluksiz ravishda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni egallab borishini nazarda tutuvchi ta’limiy tamoyildir. Mazkur konsepsiya o‘quvchini faqat maktab yoki universitet davrida emas, balki butun hayoti davomida mustaqil, ongli va maqsadli o‘rganishga tayyor bo‘lgan shaxs sifatida rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

STEAM yondashuvi Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikaning integratsiyasi orqali kompleks o‘rganish (Science, Technology, Engineering, Art, Math).

STEAM ta’limining O‘zbekistonda joriy etilishi .O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi qarorlarida STEAM ta’limining bosqichma-bosqich maktablarga joriy qilinishi belgilangan. 2022–2025 yillarda:STEAM laboratoriyalari tashkil etilmoqda ,“STEAM pedagogi” kompetensiya modeli ishlab chiqilmoqda,Yangi o‘quv dasturlar va qo‘llanmalar tayyorlanmoqda

Ta’limda gamifikatsiya. O‘yin elementlarini qo‘llash orqali ta’limni qiziqarli va motivatsion qilish (masalan, Kahoot, Quizizz). Gamifikatsiya — bu oddiy o‘yin emas, balki psixologik, didaktik va motivatsion mexanizmlar orqali o‘qitishni kuchaytiruvchi strategik yondashuvdir. U o‘quvchida qiziqish, faoliyatga daxldorlik, o‘z ustida ishlash va bilimni o‘zlashtirish istagini kuchaytiradi. Shu bois, zamonaviy o‘qituvchi darsni “o‘rganishga rag‘batlantiruvchi o‘yin maydoniga” aylantira olishi lozim. Gamifikatsiya (ing. gamification) — bu o‘yinlarga xos bo‘lgan elementlar (ball berish, darajalar, rag‘batlar, bellashuvlar, yutuqlar)ni ta’limiy bo‘lmagan muhitga, ya’ni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarni ko‘proq jalb qilish, motivatsiyasini oshirish va o‘rganishga qiziqtirish jarayonidir.

Gamifikatsiya elementlari

🎯 Vazifalar va darajalar (levels) – o‘quvchilarni bosqichma-bosqich rivojlantirish

🎖️ Mukofot va ballar (badges, scores) – mehnatni tan olish va rag‘batlantirish

🗺️ Missiyalar (quests) – topshiriqlarni sarguzasht tarzida taqdim etish

👥 Reytinglar va jamoaviy bellashuvlar – sog‘lom raqobat muhitini yaratish

📊 Progress paneli – o‘z yutuqlarini kuzatib borish imkoniyati

O‘zbekiston maktablarida:

-“Kahoot”, “Quizizz”, “ClassDojo”, “Wordwall” kabi vositalar joriy etilmoqda

-“STEAM haftaligi”, “Aqlli o‘yinlar kuni” orqali interaktiv yondashuvlar targ‘ib qilinmoqda

-Fan olimpiadalari va “Edu Games” loyihalari orqali gamifikatsiyalashgan muhit yaratilmoqda

Ta’lim trendlarining mohiyatini quyidagi asosiy tamoyillar orqali tushunish mumkin:

1. Bilim berishdan ko‘ra, o‘rganishni tashkil etish (Bruner, 1961): O‘quvchi bilimni tayyor ko‘rinishda emas, izlanish va tajriba orqali egallaydi.

2. Faoliyat orqali rivojlanish (Vygotskiy, 1934): Yaqin rivojlanish zonasini faollashtiradigan faoliyatlar asosida o‘quvchining salohiyati yuzaga chiqadi.

3. Shaxsga yo‘naltirilganlik (Carl Rogers, 1969):Ta’lim motivatsiyasi va samaradorligi o‘quvchining ichki ehtiyojlariga mos kelgan holda ortadi.

4. Texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish (OECD, 2023): XXI asr fuqorosi nafaqat bilimga ega, balki texnologik savodxon, axborotni tahlil qila oladigan, ijtimoiy mas’uliyatli bo‘lishi zarur.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etish uchun yangi pedagogik yondashuv va texnologiyalardan foydalanishni talab etmoqda.Zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar va ularning nazariy-metodologik asoslari keng qamrovda tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, konstruktivizm, sotsiokonstruktivizm, faol ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv kabi zamonaviy nazariyalar asosida shakllangan metodlar – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuv va hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jon Dyui, Lev Vygotskiy, J. Bruner kabi pedagog olimlarning g‘oyalari esa bugungi ta’limda faol o‘quvchi konsepsiyasi, yaqin rivojlanish zonasi, konstruktiv o‘rganish muhiti kabi tushunchalarning shakllanishiga zamin yaratgan. Shuningdek, ta’limdagi global tendensiyalar – raqamli ta’lim, soft skills o‘rgatish, STEAM, gamifikatsiya, sun’iy intellektdan foydalanish, lifelong learning (umr bo‘yi ta’lim) kabi yondashuvlar bugungi kunda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va real hayotga tayyorgarligini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ularning shaxsga yo‘naltirilganligi, o‘quvchining faolligini ta’minlashi va o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojini rag‘batlantira olish qobiliyati bilan belgilanadi. O‘qituvchi esa endilikda bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining o‘z bilimini mustaqil egallashiga ko‘maklashuvchi, yo‘naltiruvchi, muhit yaratuvchi subyektga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar nafaqat o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish, balki o‘quvchining ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, kommunikativ ko‘nikmalari, raqamli savodxonligi va hayotga tayyorgarligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vygotskiy,1978.’’Mind in society’’
2. Bruner, 1960. "The Process of Education"
3. Slavin, 1995. "Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice"
4. Khutorskoy, 2003. "Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno orientirovannoy obrazovatel'noy modeli"
5. Zimnyaya, 2004. "Pedagogicheskaya psikhologiya"
6. Amonov Sh., 2019. "Pedagogik texnologiyalar asoslari" https://www.researchgate.net/publication/368830465_pedagogika_fanlar_bo‘yicha_maqolalar_to‘plami_-iii_global_dunyoda_ilm-fan_va_ta'limdagi_innovatsion_rivojlanishning_zamonaviy_trendlari
7. https://interonconf.org/index.php/ind/article/download/11917/10025/9817